



ANALYSIS OF FACTORS AFFECTING ECONOMIC GROWTH

Qodirova Yorqinoy

Andijan Institute of Mechanical Engineering 2nd Year Master's Degree "IAT and T"

Abstract

One of the five priorities of the Action Strategy for the further development of Uzbekistan is to strengthen macroeconomic stability and maintain high economic growth, increase the competitiveness of the national economy, modernize agriculture and focus on further development and liberalization of the economy. accelerating development, continuing institutional and structural reforms to reduce state participation in the economy, strengthening the protection of private property rights and its priority position, stimulating the development of small business and private entrepreneurship, comprehensive and balanced socio-economic development of regions, districts and cities. Active attraction of foreign investments in the sectors and regions of the economy of the country through economic development, improvement of the investment climate [1].

Introduction

Mamlakatimizda iqtisodiyotni tubdan isloh qilish jarayonida mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti ta'minlanishi talab qilinadi. Mintaqalar iqtisodiyotini ko'tarmasdan, islohotlarni chuqurlashtirmasdan milliy iqtisodiyotni rivojlantirish mumkin emas. Chunki, aynan mintaqalar milliy iqtisodiyotning rivojlanish sur'atlarini, o'ziga xos xususiyatlarini ko'p jihatdan belgilab beradi. Bunda mintaqalarda mavjud tabiiy resurslar, demografik vaziyat va inson resurslari, ma'muriy-hududiy tuzilmalar, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodchi olimlardan A.O'lmasov va A.Vahobovlarning fikricha, – Iqtisodiy o'sish – bu iqtisodiyotning rivojlanishi, ya'ni hayotiy ne'matlar bo'lgan tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarilishining ko'payib borishidir. Iqtisodiy o'sish, odatda, yalpi ichki mahsulotning o'sishi yoki aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulotning o'sishi bilan o'lchanadi.

Iqtisodiy o'sishning samaradorligi tushunchasi mavjud. U iqtisodiy o'sishning pirovard natijasi bo'lib, yalpi ichki mahsulotning qay darajada o'sganini ifodalaydi. Iqtisodiy o'sishning samaradorligi – bu iqtisodiy o'sishga qanday xarajatlar bilan erishilganligi bo'lib, yalpi ichki mahsulot o'sishining xarajatlar o'sishiga nisbati orqali aniqlanadi [2]. Mamlakatimiz mintaqalari o'ziga xos tabiiy - iqtisodiy salohiyatga, demografik holatga va boshqa shart-sharoitlarga ega. Mintaqalar tabiiy-iqtisodiy salohiyatining tarkibiy qismiga mineral xomashyo, yer va suv resurslar, aholi va mehnat resurslari, asosiy ishlab chiqarish fondlari, aylanma ishlab chiqarish resurslari va aholining shaxsiy mulki kiradi. Bu resurslari miqdori va ulardan foydalanish darajasi bo'yicha mintaqalar va hududlar bir-biridan keskin farq qiladi. Bunday xilma-xillik mintaqaning iqtisodiy



o'sishiga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Mintaqalarning respublikamiz yalpi ichki mahsulotidagi ulushini quyidagi jadvaldan ham ko'rishimiz mumkin:

Mintaqalar	Yalpi aholi sonidagi ulushi, %	Yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, %	Yalpi sanoat mahsulotidagi ulushi, %	Yalpi qishloq ho'jaligi mahsulotidagi ulushi, %
Toshkent	17,8	29,4	29,6	14,3
Farg'ona	28,6	21,1	26,5	24,3
Zarafshon	20,2	19,2	19,1	26,4
Janubiy Mirzacho'l	17,1	13,3	17,7	16,6
Quy	4,4	7,2	2,3	9,3
Amudaryo	11,9	9,8	4,8	9,1
O'zbekiston Respublikasida	100	100	100	100

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, mintaqalarning yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlari hududning yalpi ichki mahsulotdagi ulushiga ta'sir ko'rsatgan. 2019 yil yakunlari bo'yicha yalpi ichki mahsulot 424,1 trln. so'mga teng bo'lgan, 2020 yilning birinchi choragi bo'yicha 110,5 trln. so'mni tashkil etgan, bu jon boshiga 3,25 mln. so'mga (341 dollarga) teng [4]. 2019 yilda respublikamiz aholisi soni 33 375 800 kishini tashkil qilgan [3]. 2019 yil yakunlari bo'yicha ma'lumotlarni tahlil qiladigan bo'lsak, Farg'ona mintaqasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi yuqori 21,1 foizni yoki 89,5 trln. so'mni (424,1 trln. so'm: 100 x 21.1) tashkil qiladi. Farg'ona mintaqasida aholi soni ham yuqori 9 545 478 kishi (33 375 800:100 x 28,6). Uning respublika yalpi aholi sonidagi ulushi 28,6 foiz.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, mintaqaning jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi mintaqaviy mahsuloti (YaMM) 9 365691 so'mga (89,5 trln. so'm : 9 545 478 kishi) teng. AQSh valyutasiga aylantirsak, bu 983 dollarni (9365691 so'm: 9530 so'm) tashkil etadi (9530 so'm o'sha davrdagi o'rtacha valyuta kursi).

Zarafshon mintaqasining ko'rib chiqadigan bo'lsak, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi esa 81.4 trln. so'mni (424,1trln. so'm:100 x 19.2) tashkil qiladi (19.2 % yalpi ichki mahsulotdagi ulushi), aholi soni 6741911 kishidan (33 375 800 kishi :100 x 20,2) iborat (20,2% -yalpi aholi sonidagi ulushi). Bu ko'rsatkichlardan foydalanib, kishi boshiga to'g'ri keldigan yalpi hududiy mahsulotni aniqlaydigan bo'lsak, 12 149 253 so'mga (81.4 trln. so'm : 6741911 kishi) teng. AQSh valyutasiga aylantirsak, bu 1275 dollarni (12149253 so'm : 9530 so'm) tashkil etadi.

Toshkent mintaqasining YaIMdagi ulushi 123.4 trln. so'mga (424,1 trln. so'm:100 x 29.4) teng (29.4% yalpi ichki mahsulotdagi ulushi). Aholi soni 5940824 kishi (33 375 800 :100 x 17,8). YaIMni aholi jon boshiga hisoblasak, 20 919856 so'mga (123.4trln. so'm : 5940824 kishi), buni AQSh valyutasiga aylantirsak, 2197 dollarga (20 939856 so'm : 9530 so'm) teng.



Demak, mintaqani yalpi ichki mahsulotdagi ulushi yoki yalpi hududiy mahsuloti hajmi nafaqat ishlab chiqarish hajmi, balki, aholi soniga ham bog'liq ekan. Tahlilimiz ko'rsatganidek, Farg'ona mintaqasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 89,5 trln. so'mni, Zarafshon mintaqasini esa 81,4 trln. so'mni tashkil etadi. Kishi boshiga to'g'ri keladigan yalpi hududiy mahsulot Farg'ona mintaqasida 983 dollar bo'lsa, Zarafshon mintaqasida 1275 dollar, Toshkent mintaqasida esa 2197 dollarga teng. Agar 2018 yilda respublikamizda YaIM aholi jon boshiga o'rtacha 1 533 dollardan to'g'ri kelishini inobatga olsak, qilingan tahlil bo'yicha bu borada faqat Toshkent mintaqasida iqtisodiy o'sishga erishilgan. Lekin, xududning o'ziga nisbatan qolgan mintaqalarda ham nisbatan iqtisodiy o'sishga erishilgan.

Alohida olingan hududlarning iqtisodiy o'sishini tahlil qilishda yalpi hududiy mahsulot ko'rsatkichlaridan foydalaniladi, lekin iqtisodiy adabiyotlarda unga aniq ta'rif berilmagan. Iqtisodchi olimlarning ta'riflaridan foydalanib, yalpi hududiy mahsulotga quyidagicha ta'rif beramiz:

– Yalpi hududiy mahsulot (YaHM) alohida olingan hududda rezident va norezidentlar tomondan ma'lum davrda ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar) qiymatidir.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi –O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi PF-4947-son farmoni. // Xalq so'zi, 2017 yil 8 fevral.
2. O'lmasov A., Vaxobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik.T.: –Iqtisod Moliya, 2014.
3. 2019 yilda O'zbekiston Respublikasi aholisi soni. <http://www.stat.uz>
4. 2020 yilning birinchi choragi yakunlari. Toshkent, 24-Sputnik.